

GLOBALLASHUV SHAROITIDA TALABALARDA UMUMINSONIY EKOLOGIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGLARNING AHAMIYATI

Qalandarova Gulqand Mamurovna

O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti,
pedagogika psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayonlarining atrof-muhitga ta'siri va bu sharoitda oliy ta'lim talabalarida ekologik madaniyatni yuksaltirish masalalari tahlil qilinadi. Talabalarda umuminsoniy ekologik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari va "Yashil ta'lim" tamoyillari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Globallashuv, ekologik dunyoqarash, talaba, ekologik madaniyat, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, antropotsentrizm, ekotsentrizm.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние процессов глобализации на окружающую среду и вопросы повышения экологической культуры студентов вузов в этих условиях. Освещены педагогико-психологические механизмы формирования общечеловеческого экологического мировоззрения студентов и принципы «Зеленого образования».

Ключевые слова: Глобализация, экологическое мировоззрение, студент, экологическая культура, устойчивое развитие, зеленая экономика, антропоцентризм, экоцентризм.

Abstract. This article analyzes the impact of globalization processes on the environment and the issues of improving the environmental culture of university students in these conditions. The pedagogical-psychological mechanisms of forming a universal ecological worldview of students and the principles of "Green Education" are highlighted.

Keywords: Globalization, ecological worldview, student, environmental culture, sustainable development, green economy, anthropocentrism, ecocentrism.

KIRISH

XXI asr insoniyat tarixiga nafaqat misli ko'rilmagan texnologik yuksalish, balki global ekologik inqirozlar davri bo'lib ham kirdi. Globallashuv jarayoni dunyo iqtisodiyotini birlashtirgan bo'lsa-da, shu bilan birga, ekologik muammolarning ham dunyo miqyosiga chiqishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda iqlim o'zgarishi, Orol dengizi fojiasi, global isish va tabiiy resurslarning kamayishi kabi muammolar bir millat yoki bir davlat doirasida bo'libgina qolmay, umuminsoniy muammoga aylanishga ulgurdi.

Hozirgi kunga kelib, butun dunyodagi ekologik holat ko'pchilikni birdek bezovta qilmoqda. Ekologik halokat ko'z o'ngimizda dahshatli tus olmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish va mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Hozirgi ekologik inqirozning sababchisi va o'z aql-zakovati bilan shu inqirozdan xoli etuvchisi ham Inson ekanligi ma'lum bo'lib qoldi. Bunday sharoit kelajak kadrlarini tayyorlovchi oliy ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'ydi. Talabada nafaqat o'z kasbining ustasi bo'lish ko'nikmasini, balki atrof-muhit oldidagi mas'uliyatni chuqur his qiluvchi ekologik shaxsni shakllantirish ushbu vazifalar sirasiga kiradi. Globallashuv davrida talabalarining ekologik madaniyatini yuksaltirish shunchaki nazariy bilimlarni berish bilan cheklanmaydi; bu jarayon chuqur pedagogik mahorat va psixologik yondashuvni talab etadi. Zero, dunyoqarashning o'zgarishi bu — shaxsiyatning qayta shakllanishi demakdir.

Bu jarayonda psixologlarning ahamiyati talabning ichki motivatsiyasini shakllantirishda namoyon bo'ladi. Ekologik dunyoqarashni shakllantirish, bu mohiyatan inson psixologiyasidagi "iste'molchi" modelidan "himoyachi" modeliga o'tishdir.

Globalashuv va ekologik muammolarning o'zaro bog'liqligi. Globalashuv sharoitida ekologik dunyoqarashni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Birinchidan, ishlab chiqarishning globalashuvi natijasida atrof-muhitning ifloslanishi chegarasiz tus oldi. Ikkinchidan, iste'molchilik madaniyatining (consumerism) ommalashishi tabiiy boyliklarga bo'lgan munosabatning yomonlashishiga, ekologik madaniyat darajasining pasayishiga olib keldi. Talabalarda umuminsoniy dunyoqarashni shakllantirish uchun ularga quyidagi ziddiyatlarni tushuntirish lozim. Birinchidan, iqtisodiy o'sish va ekologik muvozanat o'rtasidagi mutanosiblik masalasi. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti tamoyillari ko'p hollarda cheksiz iqtisodiy o'sishni va yalpi ichki mahsulot hajmini oshirishni ustuvor vazifa qilib qo'yadi. Biroq, bu intilish Yer sayyorasining cheklangan tabiiy imkoniyatlari bilan to'qnash kelmoqda. Talabalarda "iqtisodiy o'sish har qanday badal evaziga amalga oshirilishi kerak" degan tushunchadan voz kechish, buning o'rniga resurslarni qayta tiklashga asoslangan barqaror taraqqiyot tamoyillarini singdirish lozim. Ya'ni, bugungi kun ehtiyojlarini qondirish kelajak avlodlarning imkoniyatlariga zarar yetkazmasligi shart. Bu ziddiyatni hal qilishning yagona yo'li — ishlab chiqarishni tabiatning o'zini qayta tiklash qobiliyati bilan muvofiqlashtirishdir.

Ikkinchidan, texnokratik yondashuv va tabiatparvarlik (antropotsentrizm va ekotsentrizm) o'rtasidagi qarama-qarshilik. Uzoq vaqt davomida insoniyat ongida tabiatga nisbatan antropotsentrik, ya'ni "inson — koinot markazi" degan qarash ustunlik qilib keldi. Ushbu yondashuv tabiatni shunchaki cheksiz xomashyo ombori va inson manfaatlari uchun xizmat qiluvchi vosita sifatida ko'radi. Bunday texnokratik qarash ekologik inqirozlarning asosiy sababchisiga aylandi.

Bugungi kun talabasi dunyoqarashida esa ekotsentrizm g'oyasi shakllanishi zarur. Bu yondashuv insonni tabiatdan ustun emas, balki uning ajralmas va teng huquqli bir bo'lagi sifatida e'tirof etadi. Ekotsentrik dunyoqarashga ko'ra, tabiatning har bir elementi (suv, havo, hayvonot va o'simlik olami) o'ziga xos qiymatga ega va inson ularni asrab-avaylash orqali o'zligini ham saqlab qoladi. Talabalarda ushbu ma'naviy-ekologik mas'uliyatni uyg'otish, ularning nafaqat mutaxassis, balki Yer sayyorasining ongli himoyachisi sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Talabalarda ekologik dunyoqarashni shakllantirishning psixologik asoslari:

Talabalarda umuminsoniy ekologik dunyoqarashni shakllantirish jarayoni faqatgina tashqi axborotni qabul qilish bilan cheklanmay, balki shaxsning ichki psixologik strukturasi tub burilish yasashni taqozo etadi. Bu borada psixologik yondashuv uchta strategik yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

1. Ekologik ustanovkalarni transformatsiya qilish. Uzoq yillar davomida shakllangan "tabiat-insoniyatning tunganmas resurs manbai" degan stereotip bugungi kunda barqaror rivojlanish yo'lidagi asosiy psixologik to'siqdir. Ushbu noto'g'ri ustanovkani parchalash uchun ta'lim jarayonida maxsus psixologik treninglar va keys-metodlardan foydalanish zarur. Talaba tabiatni shunchaki foydalanish obyektini sifatida emas, balki murakkab va nozik muvozanatga ega bo'lgan tirik tizim sifatida anglay boshlashi kerak. Psixologik ta'sir choralari orqali talaba ongida "tabiatdan olish" modelini "tabiat bilan birga rivojlanish" modeliga almashtirish, uning ekologik ongi tarkibidagi ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarni qayta shakllantiradi.

2. Ekologik mas'uliyat va shaxsiy daxldorlik hissini rivojlantirish. Zamonaviy yoshlar orasida keng tarqalgan "mening birgina harakatim global miqyosda hech narsani o'zgartirmaydi" degan psixologik apatiya (loqaydlik) ekologik faollikning pasayishiga sabab bo'lmoqda. Psixologik nuqtai nazardan, bu holat shaxsning o'z harakatlari natijasiga bo'lgan ishonchsizligidir. Ushbu to'siqni bartaraf etish uchun "kichik qadamlar strategiyasi" metodikasini qo'llash samarali hisoblanadi. Talabalarga har bir individual harakat (suvni tejash, chiqindini saralash, plastikdan voz kechish) global ekologik xavfsizlikning ajralmas qismi ekanligi tushuntiriladi. Bu orqali talabada "shaxsiy daxldorlik" hissi uyg'onadi va u o'zini global ekologik jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida his qila boshlaydi.

3. Ekologik empatiya va ma'naviy birlikni shakllantirish. Ekologik dunyoqarashning eng yuqori bosqichi — bu tirik tabiatga nisbatan empatiya, ya'ni hamdardlik va rahm-shafqat hissini tuyishdir. Psixologik metodlar (ekotreninglar, meditatif yondashuvlar, tabiat qo'ynidagi amaliy mashg'ulotlar) yordamida talabalarda o'simlik va hayvonot olamiga, butun ekotizimga nisbatan "o'ziniki kabi" g'amxo'rlik qilish tuyg'usi rivojlantiriladi. Ekologik empatiya talabani tabiatga nisbatan agressiv yoki befarq munosabatdan tiyadi va uni ma'naviy jihatdan boyitadi. Natijada, tabiatni asrash qonuniy majburiyat emas, balki ichki ehtiyojga, insoniy vijdon amriga aylanadi.

XULOSA

Globallashuv sharoitida talaba-yoshlarda umuminsoniy ekologik dunyoqarashni shakllantirish jarayoni bugungi kun oliy ta'lim tizimining shunchaki qo'shimcha vazifasi emas, balki uning strategik o'zagi bo'lishi lozim. Olib borilgan tahlillar va nazariy mushohadalar shuni ko'rsatadiki, ekologik inqirozni bartaraf etishning kaliti texnologik yechimlarda emas, balki inson ongining transformatsiyasida, ya'ni uning tabiat bilan munosabatini tubdan qayta ko'rib chiqishidir.

Birinchidan, ekologik ustanovkalarining o'zgarishi talabani "iste'molchi" psixologiyasidan "bunyodkor" va "muhofazachi" bosqichiga olib chiqadi. Talaba o'z kasbiy faoliyatini (bo'lajak muhandis, iqtisodchi, huquqshunos yoki pedagog sifatida) tabiatdan ayri holda emas, balki uning uzviy bir qismi sifatida tasavvur qila boshlaydi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy o'sish va ekologik muvozanat o'rtasidagi ziddiyatni yumshatib, "yashil iqtisodiyot" sari tashlangan muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, shaxsiy mas'uliyat hisining uyg'onishi talabalaridagi global loqaydlik va apatiyani yengishga yordam beradi. Har bir yosh o'zining kichik kundalik odatlari — suvni tejashi, chiqindini saralashi yoki energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanishi orqali sayyora taqdiriga ta'sir ko'rsata olishini anglab yetadi. Ushbu sub'yektiv daxldorlik tuyg'usi talabani ijtimoiy faol shaxsga aylantiradi va unda globallashuvning salbiy ekologik oqibatlariga qarshi "ma'naviy immunitet" hosil qiladi.

Uchinchidan, ekologik empatiya va rahm-shafqat tuyg'ularining shakllanishi ta'limning gumanistik mohiyatini ochib beradi. Tabiatga nisbatan umuminsoniy qadriyatlar asosida munosabatda bo'lish — bu nafaqat atrof-muhitni, balki insoniyatning ma'naviy qiyofasini ham saqlab qolish demakdir. Pedagog va psixologlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari natijasida talaba antropotsentrik (inson markazli) qarashdan ekotsentrik (tabiat markazli) dunyoqarashga o'tadi, bu esa Yer yuzidagi hayotning davomiyligini ta'minlovchi eng kuchli ma'naviy qalqondir.

Yakuniy xulosa o'rnida aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida "Yashil ta'lim" tamoyillarini joriy etish, o'quv dasturlarini ekologik mazmun bilan boyitish va talabalarning psixologik ustanovkalarini ijobiy tomonga o'zgartirish davr talabidir. Biz tarbiyalayotgan yoshlar nafaqat yuqori malakali mutaxassis, balki Yer sayyorasi oldidagi o'z mas'uliyatini

chuqur his qiluvchi, tabiat bilan uyg'unlikda yashashni oliy qadriyat deb biluvchi haqiqiy inson bo'lib yetishishlari shart. Faqatgina ana shunday keng qamrovli ekologik dunyoqarash orqali insoniyat o'zining umumiy uyi - Yerni kelajak avlodlar uchun omon saqlab qola oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

II. O'zbek tilidagi adabiyotlar:

4. Ergashev A., Ergashev T. "Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish". – T.: Yangi asr avlodi, 2015. – 456 b.
5. Nigmatov A.N. "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish". – T.: Cho'lpon, 2013.
6. To'xtayev A.S. "Ekologiya". – T.: O'qituvchi, 2011.
7. Shokirov Sh. "Pedagogika va ekologik ta'lim: muammo va yechimlar". – T.: Fan va texnologiya, 2018.

III. Rus tilidagi adabiyotlar:

8. Дерябо С.Д., Ясвин В.А. "Экологическая педагогика и психология". – Учебное пособие для вузов. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1996. – 480 с.
9. Мамедов Н.М. "Культура, экология, образование". – М.: РЭА, 2016.
10. Моисеев Н.Н. "Человек и ноосфера". – М.: Молодая гвардия, 2014.
11. Панов В.И. "Экологическая психология: опыт построения методологии". – М.: Наука, 2004.

IV. Ingliz tilidagi adabiyotlar (Xalqaro manbalar):

12. Sterling, S. "Sustainable Education: Re-visioning Learning and Change". – Green Books, UK, 2011.
13. Orr, D. W. "Ecological Literacy: Education and the Transition to a Postmodern World". – State University of New York Press, 2012.
14. United Nations. "Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development". – UN Publishing, 2015.
15. UNESCO. "Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives". – Paris, 2017.

V. Elektron resurslar va jurnallar:

16. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi rasmiy sayti: www.eco.gov.uz.
17. Journal of Cleaner Production (Xalqaro ilmiy jurnal resurslari).
18. "Ekologiya xabarnomasi" ilmiy-amaliy jurnali, Toshkent.